

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

N°1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МҲАЛЛИФ МАСЪҮЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Сеитов Азамат, Рубенян Ангелина ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КУЛЬТУРНЫХ БРЕНДОВ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ КЫРГЫЗСТАНА С УЧЕТОМ ФАКТОРА УЗБЕКСКОЙ ДИАСПОРЫ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI....	12
3. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA SOTSIOLOGIK MONITORINGNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	21
4. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLARNING MODERNIZATSIYALASHUV VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	30
5. Dulanbo'yeva Oygul, Xolov Abduqodir AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA KITOB MUTOLAAASI IJTIMOY DETERMINANTLARINING NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI.....	37
6. Tolipov Abdug'affor MDH MAMLAKATLARIDA VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOIY PROFILAKTIKASINING AMALGA OSHIRISH AMALIYOTI.....	44
7. Alikariyeva A'loxon RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA OLIY TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH MUAMMOLARI.....	53
8. Tajieva Dilnoza XOTIN-QIZLAR IJTIMOY FAOLLIGINI "INSON-JAMIYAT-DAVLAT" HAMKORLIGIDA OSHIRISH.....	61
9. Nosirova Marguba THE IMPORTANCE OF NEW SKILLS IN IMPROVING WOMEN'S EMPLOYMENT AND ENTREPRENEURSHIP (UNTIL 2030).....	68
10. Kirgizbayev Turgun O'ZBEKISTON OMMAVIY DIPLOMATIYASI MARKAZIY OSIYODA ISHONCHNI O'RNATISH VOSITASI SIFATIDA.....	74
11. Asanov Xodjaxmet KOGNITIV FANNING SUN'IY INTELLEKT RIVOJIGA TA'SIRIDA IJTIMOY SIYOSATNING O'RNI.....	80
12. Kirgizbayev Turgun MARKAZIY OSIYODA MA'NAVY-SIYOSIY BARQAROR MUHITNI TA'MINLASHNING AHAMIYATI.....	92

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Sabirova Umida,

sotsiologiya fanlari doktori (DSc),

O'zbekiston milliy universiteti

Sotsiologiya kafedrasida dotsenti

e-mail: umidasabirova68@gmail.com

OLIIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA SOTSIOLOGIK MONITORINGNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839942>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada oliy ta'lim sifatini baholash va boshqarishda sotsiologik monitoringning o'rni, mazmuni hamda metodologik asoslari tahlil etiladi. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi sifatiga bevosita bog'liq ekani asoslab beriladi. Monitoring ta'lim sifati holatini doimiy kuzatish, baholash va prognozlashning samarali mexanizmi sifatida yoritiladi. Maqolada monitoringning subyektlari va obyektlari, maqsadi, mezonlari hamda baholash ko'rsatkichlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, diagnostika va ekspertiza metodlarining ta'lim sifatini aniqlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Muallif ta'lim monitoringini modernizatsiya qilish zarurati va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, oliy ta'lim, sotsiologik monitoring, ta'lim monitoringi, baholash mezonlari, diagnostika, ekspertiza, ta'lim tizimi, kvalimetrik yondashuv, ta'limni boshqarish

Сабирова Умида,

доцент кафедры Социологии

Национального университета,

доктор социологических наук

e-mail: umidasabirova68@gmail.com

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы социологического мониторинга качества высшего образования в условиях модернизации образовательной системы. Обоснована роль мониторинга как эффективного инструмента постоянного наблюдения, оценки и прогнозирования состояния образовательного процесса. Подчеркивается, что развитие цифровой экономики и подготовка конкурентоспособных специалистов напрямую зависят от качества высшего образования. Анализируются субъекты и объекты мониторинга, его цели, критерии и показатели оценки. Особое внимание уделяется диагностическим и экспертным методам как важным элементам системы мониторинга качества образования. Выявлены основные проблемы практического применения

мониторинга и предложены направления его совершенствования. Сделан вывод о необходимости комплексного и системного подхода к оценке качества высшего образования.

Ключевые слова: качество образования, высшее образование, социологический мониторинг, мониторинг образования, критерии оценки, диагностика, экспертиза, образовательная система, квалиметрический подход, управление образованием.

Sabirova Umida,

Associate Professor of the Department of Sociology,

National University,

Doctor of Sociological Sciences

e-mail: umidasabirova68@gmail.com

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIOLOGICAL MONITORING IN ASSESSING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION

ABSTRACT

The article examines the theoretical and methodological foundations of sociological monitoring of higher education quality in the context of educational modernization. The role of monitoring as an effective tool for continuous observation, evaluation, and forecasting of educational processes is substantiated. It is emphasized that the development of the digital economy and the training of competitive professionals depend directly on the quality of higher education. The study analyzes the subjects and objects of monitoring, its goals, criteria, and evaluation indicators within a systemic approach. Special attention is paid to diagnostic and expert assessment methods as key components of quality monitoring. Existing challenges in implementing monitoring practices are identified, and recommendations for improving the higher education quality assessment system are proposed.

Key words: education quality, higher education, sociological monitoring, educational monitoring, evaluation criteria, diagnostics, expertise, education system, qualimetric approach, education management

KIRISH

Dunyoda ta'lim sifatini baholash va istiqbolini belgilash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda va shu maqsadga xizmat qiladigan barcha usul va vositalardan, birinchi navbatda, sotsiologik monitoringdan keng foydalanilmoqda. Ta'lim sotsiologiyasining tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim sifati monitoringi oxirgi o'n yilliklar mobaynida muayyan darajada rivojlandi, sezilarli yutuqlarga erishildi. Ko'plab mutaxassislar oliy ta'lim sifatining yaxlit modelini yaratish, ta'lim sifatini baholashning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish zarurligi to'g'risida fikr yuritmoqdalar.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasi har qanday iqtisodiy o'sishning eng muhim omili asta-sekin tugab borayotgan tabiiy zahiralarni emas, bitmas-tuganmas hisoblangan inson omili ekanligidan, millatning ilmiy salohiyati va yuksak malakali kadrlar zahirasi ekanligidan dalolat bermoqda. Fan va texnika, innovatsion texnologiyalar asosida barpo bo'layotgan raqamli iqtisodiyot yuqori darajada rivojlangan ta'lim tizimiga, birinchi navbatda, oliy ta'lim tizimi sifatiga bog'liqdir. Binobarin, oliy ta'lim sifatini muttasil yuksaltirish, kadrlar malakasini doimiy ravishda oshirib borish, faqat bugun emas, balki ertangi kun ehtiyojlarini xam qondiradigan mutaxassislar tayyorlash, jahon oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini, xususan oliy ta'limni tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2024/2025 o'quv yili boshiga (filiallarini ham hisobga olgan holda) O'zbekistonda 222 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. Bu ko'rsatkich 2015/2016 o'quv yili bilan taqqoslaganda sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda – o'shanda oliy o'quv yurtlari soni bor-yo'g'i 69 tani tashkil etgan. Shu tariqa, so'nggi o'n yil ichida oliy ta'lim muassasalari soni 153 taga ko'paydi va 3,2 barobarga oshdi [1]. Mana shu miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishiga olib kelishi uchun oliy ta'lim tizimini baholab borish, monitoring

qilishning tamomila yangi va benuqson mexanizmi joriy etilishi zarur hisoblanib, undan samarali texnologiya sifatida foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Monitoring” atamasi xalqaro hujjatlarda rasman ishlatila boshlaganiga roppa-rosa 55 yil to‘ldi [2]. Shu yarim asr ichida ham faoliyat turi, ham tadqiqot usuli, ham baholash va bashorat qilish mexanizmi sifatida bu tushuncha kirib bormagan biror ijtimoiy soha, biron bir ishlab chiqarish tarmog‘i qolmadi. Etimologik jihatdan inglizcha “monitor” so‘zi “tekshirish uskunasi”, “muntazam tekshirib bormoq”, “oldga qarovchi”, “ogohlantiruvchi” ma’nosini beruvchi lotincha “monitoring” so‘zi hozirda turli ma’nolarda qo‘llanilmoqda. Muayyan o‘zgarishlarni doimiy kuzatib borish mexanizmi sifatida monitoring har qanday jabhada amalga oshiriladi, biroq sohalar monitoringi o‘z mazmuni, tashkil etilishi, amalga oshirilishi va olingan ma’lumotlarni amalda qo‘llashi bilan bir-biridan farq qiladi.

METODOLOGIYA

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, “monitoring” tushunchasi pedagogikaga yaqin bo‘lib, uning mohiyati va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflashda turli yondashuvlar mavjud. Uni kuzatish orqali (O.Garanina, O.Rumyanseva, L.Shadrinava boshqalar) [3], nazorat qilish orqali (I.Glushko, T.Zuyeva va boshqalar) [4], diagnostika orqali (V.Saprika, I.Shapavalova, L.Shmigirilova va boshqalar) [5], ekspertiza orqali (V.Boykov, A.Reshetnikov va boshqalar) [6] tavsiflashga harakatlar mavjud. Amaliyotchilar boshqaruvni o‘rganish va axborot bilan ta’minlash orqali monitoring tushunchasiga aniqlik kiritishga uringanlar. Shu bilan birga, ta’lim jarayonini tadqiq etish va islohot qilishda o‘zbek olimlaridan N.S.Alikariyev, M.B.Bekmurodov, A.J.Xolbekov, A.N.Alikariyeva, V.A.Xakimov, B.Sh.Usmonov, S.A.Alimsaidova, R.I.Xalmuradov, F.M.Ahmedova, D.Ro‘ziyeva, A.A.Kabulov, U.N.Tashkenbayev, N.R.Raxmonov, D.M.Umarova, S.A.Ibragimovalar [7] faoliyat olib borishgan.

Ta’lim muammolari qiyosiy tahlil etilganda Yevropalik olimlarning fikri diqqatga sazovordir. Xorijiy klassik olimlar E.Dyurkgeym, G.Spenser, T.Parsons, P.Sorokin, M.Veber, P.Burde, E.Gusserl, A.Shyus, M.Sheler va R.Merton tadqiqotlarida fenomenologiya nuqtayi nazaridan ta’lim tizimlarini tahlil qilish, ta’lim-tarbiyaning ahamiyati, ta’lim va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ta’limning ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan uzviy bog‘liqligini ta’lim sotsiologiyasining g‘oyalari va nazariy asarlarida o‘rganganligini kuzatish mumkin [8]. Albatta ularning ilgari surgan konsepsiyalari va qarashlari oliy ta’limni o‘rganishda metodologik ahamiyatga ega. Ijtimoiy haqiqatni bilim sotsiologiyasi asosida qurishning zamonaviy nazariyasi va metodikasi P.Berger va T.Lukman asarlarida yoritilgan [9].

ASOSIY QISM

Ma’lumki, sotsiologik monitoring jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlarni kuzatib borish, ommaning fikrini o‘rganish va tahlil qilishdir. Bunda ijtimoiy muhit holatini aks ettiruvchi muayyan ko‘rsatkichlar haqida ma’lumot to‘planadi va natijalar dinamikasi standart ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi va tahlil qilinadi. Bu jamiyat hayotining turli qirralarining rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga imkon beradi. Demak, monitoring o‘tkazish sotsiologiyada obyektiv axborotlarga ega bo‘lishga intilish va xolis analitik-baholash funksiyalarini bajaradi.

Har qanday tizim mustaqil rivojlangan sari o‘zini yuzaga keltirgan ijtimoiy struktura bilan uning bog‘liqligi zaiflashadi, aloqalari uzoqlashib boradi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlab chiqarish jadal yuqorilab, fan va texnologiyalar beqiyos darajada o‘sib ketdi, biroq kadrlar tayyorlash tizimi eskiligicha qoldi. Yetkazib berilayotgan mutaxassislar raqamli iqtisodiyot talablariga javob bera olmay qoldi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlash, ish beruvchilarning talablariga mos keladigan xodimlar yetishtirish kechiktirib bo‘lmaydigan, eng dolzarb vazifa bo‘lib qoldi. Ushbu ijtimoiy zarurat oliy ta’lim sifatini baholash, monitoring qilish va sifatini oshirishni nazorat qilishning zamonga mos mexanizmini yaratishni taqozo etmoqda.

Monitoringning integral va tizimni shakllantiruvchi funksiyalari haqida fikr yuritilganda, olimlar monitoringni ta’lim tizimidagi tizimni shakllantiruvchi omil sifatida ta’riflaydilar. Bu funksiya ta’limni boshqarish vazifasini, ya’ni tizimda sodir bo‘layotgan jarayonlarning xususiyatlarini, ta’limdagi jarayonlarning yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi.

Monitoring tarkibini tizim sifatida o'zaro bog'liq elementlar tashkil qiladi. Bularga uni amalga oshirish maqsadi, monitoring obyekti, monitoringni tashkil etish va amalga oshirish subyektlari, mezonlari va baholash ko'rsatkichlari majmui, axborot yig'ish usullari, monitoring o'tkazishni ta'minlaydigan o'zaro aloqalar kiradi.

Monitoringning subyektlari sifatida ta'lim muassasasi funksional xizmatlari, ma'muriyati, o'qituvchilar, hatto talabalar va ularning ota-onalari, shuningdek, o'quv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, lekin uni amalga oshirishda ishtirok etadigan boshqa shaxslarni (olimlar, ta'limni boshqarish organlari vakillari, va boshqalar) dissertatsiyada e'tiborga olindi.

Ta'lim sifati – bu monitoring obyektidir. Subyektlar obyektni o'rganadi va obyekt, o'z navbatida, subyektlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar manbai vazifasini bajaradi. Monitoring subyektlari obyektga qarab o'rganish maqsadini belgilaydilar. Ushbu uch turdagi aloqalar zanjiri (subyektlar – obyekt, subyektlar – maqsad, obyekt – maqsad) tizimni tashkil qiladi va ular monitoring tizimining yaxlitligini, amalga oshirilishini ta'minlaydi va yangilangan ta'lim muhitini yuzaga keltiradi.

Monitoring tizimini tashkil qiluvchi eng muhim element – bu mazkur tizimning maqsadidir. Tizim samarali ishlashi uchun maqsadni aniq belgilab olish kerak. Maqsadning mavjudligi monitoring o'tkazishda hal qiluvchi element hisoblanadi. Maqsad, tadqiqotning markaziy bo'g'ini sifatida, monitoring tizimining boshqa barcha elementlarini qamrab oladi. Maqsad asosida baholash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlanadi, tadqiqot usullari tanlanadi, monitoring o'tkazish tartibi ishlab chiqiladi, ma'lumotlar tahlil qilinadi, talqin qilinadi va foydalaniladi.

Sotsiologik monitoring ta'lim tizimining holati va faoliyati to'g'risida ma'lumotni to'plash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish shaklidir, u ta'lim sifatini muttasil baholab borish, uning rivojlanishini prognoz qilishni ta'minlaydi. Ayrim mutaxassislar sotsiologik monitoring ta'limni modernizatsiyalashning samarali uslubiga aylanib borayotgani, yagona ta'lim tizimining saqlanib qolishi va mustahkamlanishini ta'minlayotganini haqli ravishda ta'kidlab, ta'lim monitoringi obyektlari qatoriga oliy ta'lim bitiruvchisining ma'lumot darajasi, ta'lim muhiti va ta'lim tizimini kiritadilar [10].

Bizning fikrimizcha, monitoring obyektlarini bunday cheklab qo'yish noto'g'ri, zero, ta'lim sifati ikki-uch emas, balki o'nlab, yuzlab parametrlar asosida baholanishi mumkin. Darhaqiqat, monitoring ta'limning barcha subyektlariga samarali ta'sir ko'rsatadigan vosita bo'lib, ta'lim tizimini takomillashtirish va uning sifatini boshqarishning zamonaviy usuli ekani shubhasiz. Biroq, uni amaliyotda qo'llash bir qator muammolar, qiyinchiliklar bilan bog'liq.

Ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni [11] tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, “monitoring” tushunchasi undan umumiyroq – “talabalar bilimini tekshirish va qayd etish” tushunchasiga aylangan. U miqdoriy jihatdan “bilim va ko'nikmalarni baholash”ni, u esa, “bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va hisobga olish”ni nazarda tutadi. Bunday baholash va nazoratdan maqsad – talabalar tomonidan ta'lim standartlariga erishish darajasini aniqlash va ta'lim sifatini diagnostika qilish, ta'lim sifatini monitoring qilish va nihoyat “kvalimetrik monitoring” o'tkazishdan iborat.

Biz quyida monitoringni tavsiflashda eng ko'p qo'llanadigan tushunchalarga qisqacha sharx beramiz:

Diagnostika – ta'lim sifatiga tashhis qo'yish, uning barcha parametrlari haqiqiy holati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish, “og'riqli nuqta”larni aniqlash usuli. Buning uchun o'qitish natijalari, talabalarining o'zlashtirish darajasi aniqlanadi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi baholanadi, bir qator ko'rsatkichlar, mezonlar, belgilar, fazilatlar to'g'risida ma'lumot olib, ular differensiyalangan tartibda ma'lum bir guruhlariga ajratiladi [12].

Ekspertiza metodi – bu maxsus bilim talab qiladigan har qanday masalani tajriba dalillari asosida o'rganish. Ayrim mutaxassislarning fikriga ko'ra, innovatsion o'zgarishlar ekspertiza zarur ekanligini ko'rsatadi, bir tomondan, davom etayotgan o'zgarishlar haqida muvozanatli baholash uchun, boshqa tomondan, zamonaviy ta'lim va ta'lim maqsadida amalga oshirish manfaatdor turli maqsadli guruhlar talablariga muvofiqligi darajasida namoyon bo'ladi. Ekspert baholash usulidan prognozlarning barcha turlarida keng foydalaniladi. Bu usul asosida ekspertlarni tegishli ravishda tanlash yo'li bilan turli xil ijtimoiy hodisalar prognozlanadi [13]. Ekspert baholash orqali

o'rganilayotgan, tadqiq etilayotgan dolzarb muammolar, loyihalashtirilayotgan obyektlar va mavjud holatlar bo'yicha miqdoriy, shuningdek, sifat ko'rsatkichlarini baholash mumkin [14].

Tadqiqot obyekti xususiyatlaridan qat'iy nazar, ekspert shaxsning saviyasi quyidagi parametrlar bilan o'lganadi: kompetentlik (kasbiy va kvalimetrik vakolat), manfaatdorlik, kreativlik (ijodkorlik), ishbilarmonlik, obyektivlik va tahlillilik, konstruktivlik, tafakkur kengligi [15]. Bundan tashqari, natijalarni to'g'ri talqin qilish ham ekspertizaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko'rinib turibdiki, ekspertning saviyasiga qo'yilayotgan talablar juda turfa xil va murakkab. Ta'lim sohasida esa, mana shunday yuqori malakali ekspertlar yetishmaydi, bu esa, ko'p hollarda vaziyatni noto'g'ri baholashga olib keladi.

Diagnostic kuzatuvlar va ekspert baholash **monitoring tizimi** orqali amalga oshiriladi. Monitoring usullari, ayniqsa, so'nggi yillarda faol qo'llanilmoqda, undan ta'lim sifatini o'rganish, uning kompleks xususiyatlarini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvi sifatida, ta'lim tizimining rivojlanish va takomillashish salohiyatini aniqlash vositasida sifatida foydalanilmoqda.

Biroq, bir qator ishlarni tahlil qilish asosida, hali ham faqat mahalliy kuzatuv tizimlari mavjudligi haqida gapirish mumkin [16]. Monitoringning har xil turlari va darajalari bo'yicha barqaror klassifikatsiya qilish tizimi hali ishlab chiqilmagan. Rossiya adabiyotlarida **"ta'lim monitoringi"** tushunchasiga tobora ko'proq duch kelinadi, uning yo'nalishlari: sotsiologik, psixologik, valeologik, tarbiyaviy va boshqaruv kabilar hisoblanadi [17].

Bizning tadqiqotimizdagi ta'lim monitoringi uzluksiz ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida tadqiq etiladi. Bir tomondan, bu boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot usuli, ta'lim, tarbiya va taraqqiyot obyektlari va subyektlarining haqiqiy parametrlari va xususiyatlarini o'rganish usuli sifatida qaralishi mumkin; boshqa tomondan, tadqiqot natijalarini to'plash usuli sifatida, ularni o'quv jarayoni va ta'lim tizimining individual subyektini taqqoslash, tahlil qilish va rivojlanishini prognoz qilishga imkon beradi.

Ta'lim monitoringining asosiy vazifasi – bu bilim, ko'nikma va malakalarni baholash, ularning darajasiga berilgan mezon (standart) yoki statistik me'yorlar bilan o'zaro bog'lanadi. Ta'lim monitoringi tomonidan taqdim etiladigan ko'p qirrali ma'lumotlar o'quv jarayonining turli subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar darajasining oshishiga yordam beradi, ushbu subyektlarning o'zini o'zi baholash va aniqlash, tarbiyalash va rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Bunday holda biz tizim va uning quyi tizimlarining butun xarakteristikalarini ta'minlaydigan integral monitoring haqida ham gapirishimiz mumkin [18].

"Monitoring" tushunchasi monitoring va diagnostika jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Bolonya konvensiyasiga qo'shilish munosabati bilan davlat va ta'lim muassasasi oldida bilimlarni monitoring qilish va baholashning yangi mexanizmlarini o'zlashtirishdek, dolzarb masala turibdi. Shuning uchun, birinchi navbatda, foydalanilgan bilim tizimining asosiy kamchiliklarini ta'kidlash muhimdir:

- o'qitish texnologiyalari bilan aloqaning yetishmasligi;
- materialni o'ziga xos sharoitlarda ijodiy qo'llashga emas, balki uni yodlashga yo'naltirilgan yondashuv;
- oliy ta'lim ko'rsatkichlarini belgilash nuqtayi nazaridan ta'lim muassasalari va o'qituvchilarining subyektivligi;
- standartlashtirilgan chora-tadbirlarning yetishmasligi va boshqalar.

Afsuski, avvalgidek, bilimni monitoring qilish va baholash ko'pincha majburlash orqali amalga oshiriladi. An'anaviy monitoring va baholash tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini quyidagilarda aniqlash mumkin:

- ta'lim o'lganlarining ilmiy nazariyalariga asoslangan obyektiv ko'rsatkichlarga o'tilishi; taqdim etilgan materialning talaba tomonidan yodlash darajasini emas, balki talabaning ijodiy fazilatlarini aniqlashga imkon beradigan, egallagan bilim va ko'nikmasini amaliyotga qo'llay olishini integral ko'po'lganli baholash tizimi orqali belgilab borilishi;

- "o'rtacha" talabaga e'tibor qaratmasdan, bilimlarni monitoring qilishning individual usullarini joriy etish; talabaning shaxsiy yutuqlarini bir martalik notekis bilimlar bilan emas, balki dinamikada o'lgan usulini joriy etish;

- erishilgan bilimlarning ko‘nimaga aylantirilishi va davlat ta’lim standartining tegishli talablariga qat’iyroq rioya etib kuzatilishi;


- talaba bilimiga erishishda talabaning mustaqil ishlash jarayoni samaradorligini oshirilishi;

- markazlashtirilgan test sinovlarining ta’lim muassasalari bitiruvchilari va oliy o‘quv yurtlariga kirayotgan abituriyentlar bilimini baholash vositasi sifatida tobora ortib borayotganligi.

Shuni ta’kidlash lozimki, bilimlarni baholashning innovatsion monitoring va baholab borish tizimiga o‘tish to‘liq miqyosli eksperimentdan foydalanish mumkin bo‘lgan harakatlar ketma-ketligini yaratish, turli g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ta’lim sifatini baholashning zamonaviy va samarali tizimini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Bilimlarni baholashning an’anaviy usuli bilan ta’lim o‘lchovining asosiy farqi shundaki, talabalarning baho ko‘rsatgichlari va empirik shkala nuqtalari o‘rtasidagi moslikni o‘rnatish jarayoni qatorlar xususiyatlari bilan ifodalanadi. Ta’limni o‘lchashda quyidagi xususiyatlardan foydalaniladi:

- talabaning baholanadigan xususiyatlari, ularning sinov paytida o‘zlashtirgan bilimlari;
- talaba ko‘nikmalari;
- o‘lchov birligi – test topshiriqlari;
- tinglovchilarning son qiymatlarini belgilaydigan empirik operatsiyalar to‘plami;
- o‘lchov natijasi – test topshiruvchilarning ballari shkalasini belgilash (1- chizma).



1-chizma. Ta’limni talaba tomonidan egallaganlik xolatini shkalaviy qatorlar xususiyatlariga ko‘ra o‘rganish

Monitoringning har xil turlarini amalga oshirish imkoniyati tegishli boshqaruv tizimlarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Zamonaviy ishlarda monitoring ko‘pincha o‘lchov jarayonlari va o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati natijalarini baholash bilan bog‘liq bo‘lib, monitoringning barcha turlarining tarbiyaviy aloqasi asosiy omildir [19].

Ta’lim sifatini kompleks monitoring qilish talabalar, o‘qitish, ta’lim muassasalari, ta’lim tizimlarini o‘z ichiga olishi mumkin va uni baholashda avvalambor, erishilgan ta’limiy darajaning me’yorga muvofiqligi, talabalarning yutuqlari - davlat ta’lim standartlari, statistika normalariga mosligi va shuningdek, talabgorlarning so‘rovlariga tayaniladi [20].

Ta’lim yutuqlarida erishilgan sifatini tekshirish, monitoring qilish, o‘lchash asosan miqdoriy ma’lumotlarni, shu jumladan, uzoq muddatli kuzatuv va statistik natijalar asosida ta’lim tizimining natijalarini olishni nazarda tutadi. Bunday ma’lumotlar asosida sifatli tahlil, xulosalarni shakllantirish, o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini izlash va qabul qilish va uni amalga oshirish shartlari amalga oshiriladi.

Ko'pgina ekspertlar monitoringni tashkil etishning an'anaviy monitoring tizimidagi muhim kamchiliklarni qayd etishadi: monitoring qilish usullaridan oqilona foydalanish, didaktik maqsadga muvofiq ish tuta olmaslik, mavzu materialining o'ziga xos xususiyatlari va ish sharoitlarini bilmaslik, tizimli yondasha bilmaslik, baholashning yagona vositalari va mezonlariga tayanmaslik va hokazo.

Kvalimetriyada monitoring ma'lumotlarini ta'lim yo'nalishlarining individual xususiyatlari asosida tahlil etish, shuningdek, tadqiqot obyektlarining umumiy populyatsiyasiga doir ma'lumotlar bilan taqqoslash imkoniyati mavjuddir. Hozirgi vaqtda monitoring tizimi, ayniqsa, kvalimetrik va ko'pbosqichli monitoring tizimi, uning nazariy asoslanishiga ham, uni amalga oshirish uchun metodlar, texnologiyalar va amaliyotni ishlab chiqishga ham muhtoj [21].

XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ta'lim sifatini monitoring qilishdan ko'zlangan maqsad – mana shu sifat ko'rsatkichlari qaysi omillar ta'sirida, qanday ijtimoiy va tarbiyaviy vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin, degan savolga asosli, ilmiy javoblarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun ta'lim jarayonidagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni kuzatish, ijobiy ta'sirni kuchaytirish, salbiy ta'sirlarni bartaraf etishga ko'maklashadigan mexanizmni yaratish zarur. Ta'lim jarayonining shu paytgacha foydalanilmagan imkoniyatlari ishga solinsa, oliy maktab bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi yuksaladi, bu esa, ta'lim sifatini baholaydigan asosiy mezonidir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://www.uzdaily.uz/uzc/o%CA%BBzbekistonda-10-yilda-oliy-talim-muassasalari-soni-32-barobarga-oshib-222-taga-etdi/>
2. Ushbu atama ilk bora YUNESKOning "Atrof-muhit muammolari ilmiy qo'mitasi"ning maxsus tavsiyalarida 1971-yil qo'llanilgan, so'ng 1972-yili ekologik monitoring bo'yicha Stokgolmda chaqirilgan konferensiyada rasman muomalaga kiritilgan.
3. Гаранина О.Д., Румянцева О.С. Социологический мониторинг качества образовательной среды // Актуальные вопросы современной науки. 2010. №15. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiologicheskii-monitoring-kachestva-obrazovatelnoy-sredy> (дата обращения: 13.12.2025); Шадрин Л.Ю. Социологический мониторинг как средство информационного сопровождения оценки эффективности социальных технологий // Известия Рос. гос. пед. ун-та им. А.И. Герцена. - 2010. - № 126. - С. 319-325.
4. Глушко И., Зуева Т. Мониторинг качества образовательной деятельности теоретико-правовой и практический аспекты//Перспективы Науки и Образования. 2018. 4 (34). Международный электронный научный журнал (ISSN 2307-2334). pnojournal.wordpress.com/archive18/18-04/
5. Сапрыка В.А., Шапавалова И.С., Шмигирилова Л.Н. Социологический мониторинг внутривузовской среды // Современные проблемы науки и образования. 2012. №2. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=5966> (дата обращения: 13.12.2025).
6. Бойков В.Э. Социологический мониторинг в социальном управлении // Социология власти. 2006. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiologicheskii-monitoring-v-sotsialnom-upravlenii> (дата обращения: 13.12.2021); Решетников А.В. Технология социологического исследования как методическая основа медико-социологического мониторинга // Социология медицины. - 2010. - № 1. - С. 3-12.
7. Qarang: Alikariyev N.S. Inson kapitaliga investitsiyalarning samaradorligi//Sotsiologiya fanlari” (www.tadqiqot.uz/soci) elektron jurnali. 8-jild, 4-son. 2025. – Toshkent, 2025. – B. 14-24; Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - B.27; Xolbekov A.J. Oliy ta'lim muassasasini boshqarishning 21 tamoyili. // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası “Ijtimoiy fanlar: holati, tutash manzillari va ta'lim masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to'plami.

-Toshkent: O‘zMU, 2016. -B. 13-15; Alikariyeva A.N. Ta’lim sifati talabalar nigohida: sotsiologik tadqiqot natijalari// Sotsiologiya fanlari” (www.tadqiqot.uz/soci) elektron jurnali. 2-maxsus son. 2025. – Toshkent, 2025. – B. 53-60; Hakimov V.A. Pedagogik oliygohlarda sifat menejmenti tizimining bosqichli ishlab chikilishining qiyinchiliklari. – Toshkent: 2015. - B. 66-68 b.; Usmonov B.Sh. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. - Toshkent, 2017; Алимсаидова С.А. Место педагогических технологий в обучении в вузе / Молодой ученый. 2017. № 1 (135).- С. 432-434. / URL:<https://moluch.ru/archive/135/37634/> (дата обращения: 16.12.2025); Халмурадов Р.И. Высшее образование: критерии и показатели качества // Высшее образование сегодня. 2019. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vysshee-obrazovanie-kriterii-i-pokazateli-kachestva> (дата обращения: 16.12.2025); Ro‘ziyeva D. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent: 2007; Кабулов А.А. Инновационный менеджмент в образовании // Том 2 сборник научных трудов 7-й Международной конференции 12 ноября 2020 года. –С.56-60; Ташкенбаев У.Н. Узбекистан на пути интеграции в международное образовательное сообщество // Время перемен. 2020. – С. 2-8; Raxmonov N.R. Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati ta’minlash va uni baholashning o‘ziga xos xususiyatlari // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr. – Toshkent, 2018. – B. 1-8; Умарова Д.М., Ибрагимова С.А. Роль стратегического направления внедрения менеджмента качества образования в вузах Республики Узбекистан // Ekonomickétrendy № 4: НИЦ «Социосфера». – Прага, 2016. – С. 45-48.

8. Дюркгейм Э. Социология образования. Пер. с фр. - М.: ИНТОР, 1996; Спенсер Г. Образование умственное, моральное и физическое. – М.: Просвещение, 1984; Parsons T., Gerald P.: The American University. Harvard University Press; Second Printing edition (January 1, 1973); Сорокин П.А. Проблемы новой социальной педагогики // Общедоступные проблемы социологии. – М.: Наука, 1994; Вебер М. Избранное. – М.: РОССПЭН, 2006. – С.3; Bourdieu P. Forms of Capital // John G. Richardson (ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – NY.: Greenwood Press, 1986; Гуссерль Э. Кризис европейских наук и трансцендентальная феноменология. Введение в феноменологическую философию. – СПб.: Владимир Даль, 2004; Щюц А. Формирование понятия и теории в общественных науках. В кн.: Американская социологическая мысль. – М.: МГУ, 1994; Шелер М. Формы знания и образование/ Шелер М. Философское мировоззрение / Шелер М. Избранные произведения. – М.: Гнозис, 1994; Merton R.K. The Institutional Imperatives of Science // Sociology of Science/ ed. V.Barnes. L.: PenguinBooks, 1972.

9. Бергер П., Лукман Т. Социальное конструирование реальности. Трактат по социологии знания. - М., 1995.

10. Qarang: Кравченко А. И. Социология: Учеб. для вузов. – М.: Логос; Екатеринбург: Деловая кн., 2000.

11. Социология. Учебник для вузов / Г.В.Осипов, А.В.Кабыща, М.Р.Тульчинский и др. – М.: Наука, 1995; Смелзер Н. Социология /Пер. с англ.; Науч. ред. В. А. Ядов. – М.: Феникс, 2000.

12. Qarang: Социология Конта в изложении Ригولاжа. – СПб., 1898; Вебер М. Наука как призвание и профессия // Самосознание европейской культуры XX века. – М., 1991.

13. Абдуллаев О.М. Ижтимоий-иқтисодий жараёнларни прогнозлашнинг услубий асослари // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. Илмий электрон журналы. № 2 ноябрь, 2011. – Б.4. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/2_O.M.Abdullayev.pdf

14. Qarang: Исакова Д. Эксперт баҳолаш ҳамкорлик асосида педагогик фаолиятни ривожлантириш технологиялари самардорлигини аниқлаш методи

сифатида // Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 4 , Article 98.<https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss4/98>.

15. Белл Д. Мятёж против современности // Социологические исследования. 1989. №5. – С. 107-114.

16. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии / Пер. с фр. и послесловие А.Б.Гофмана. - М.: Наука, 1990; Патрушев В., Караханова Т., Темницкий А. Псков в 1986 и 1995 году // Социологический журнал, 1996. № 1/2.

17. Реформа образования в современном мире. - М., 1996; Семья и семейная политика. - М.: Наука, 1991.

18. Смелзер Н. Социология /Пер. с англ.; Науч. ред. В.А.Ядов. - М.: Феникс, 2000.

19. Андреев Ю.П., Коржевская Н.М. и др. Социальные институты, содержание, функции, контроль.- Свердловск, 1989; Вебер М. Наука как призвание и профессия // Самосознание европейской культуры XX века. – М., 1991.

20. Qarang:Смелзер Н. Социология /Пер. с англ.; Науч. ред. В.А.Ядов. – М.: Феникс, 2000.

21. Qarang:Кравченко А. И. Социология: Хрестоматия. Для студ. вузов. – М.: Издательский центр «Академия», 1997.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000